

**BAGRIKENGLIK GOYASI VA UNING IJTIMOIY TARAQQIYOTDAGI  
AHAMIYATI**

**Davronov Ziyot Davronovich.**

*F.f.d., professor.*

**Salimov Baxriddin Lutfullaevich.**

*TDTr.U dotsenti.*

**Xamidov Diyorbek Bekpo'lat o'g'li.**

*TDTr.U talabasi.*

**Annotatsiya:** Bag'rikenglik – dunyodagi turlicha boy madaniyatlar, urf-odatlar jarayonlarini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglaydi. Bag'rikenglik keng ma'noda barcha xalqlarning yashash uchun kurashish huquqining tasdiqlanishi bilan ob'ektiv ravishda bog'liqdir. Dunyo hamjamiyati kuch va zo'rlik, yakka hokimlikni zaiflashtirish yo'llarini izlab keladi. Asrlar davomida insonlar bag'rikenglikni haqiqiy poydevorini topishga intilib keldilar.

**Kalit so'zlar:** Bag'rikenglik, ijtimoiy hayot, madaniyatlar, urf-odatlar, barqarorlik.

**Abstract:** *Tolerance means respect, acceptance and correct understanding of various ways of expressing the processes of various rich cultures and traditions of the world and showing the individuality of a person. Tolerance in a broad sense is objectively related to the confirmation of the right of all peoples to fight for existence. The world community has been looking for ways to weaken power and authority. For centuries, people have been trying to find the true foundation of tolerance.*

**Key words:** *Tolerance, social life, cultures, traditions, stability.*

Vatanimiz jahondagi yirik madaniy markazlaridan biri bo'lib kelganiga shubha yo'q. O'sha qadimgi davrlardayoq mamlakat ichkarisida iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, o'ziga xos turmush tarzi, xalqning xarakteri mukammalshgan. Sharq mamlakatlari – Hindiston, Xitoy bilan bo'lgan iqtisodiy, siyosiy sohadagi munosabatlar mamlakatimiz ravnaqini orqada qolishiga yo'l qo'yagan. O'z navbatida mamlakatimiz hududida rivojlangan ilg'or urf-odatlar Sharq mamlakatlari madaniyati, falsafasiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Insoniylik sifatlari keng tarqalgan. Ana shunday insoniy- falsafiy fazilatlaridan biri diniy bag'rikenglikdir. O'rta Osiyo mutafakkirlari bag'rikenglik falsafasiga e'tiborni qaratib kelganlar.

Bag'rikenglik – dunyodagi turlicha boy madaniyatlar, urf-odatlar jarayonlarini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglaydi. Qisqacha aytadigan bo'lsak bag'rikenglik- turli tuman jarayonlardagi birlikdir. Bag'rikenglik faqat ma'naviy sohadagina emas, balki, siyosiy, huquqiy, demokratik yo'naliishlarni ham qamrab oladi. Bag'rikenglik tinchlikni ta'minlovchi, urush madaniyatsizligining yo'q qiluvchi, haqiqiy tinchlik madaniyatiga yetaklovchi jarayondir.

Diniy bag'rikenglik xalqaro vaziyatni sog'lomlashtirishga, yangicha yondoshishga yordam beradi. Din esa ijtimoiy ong sifatida inson faoliyatini qamrab oladi. Ijtimoiy ong mazmunini tobora insoniy mohiyat kasb eta borishi, shaxs haq-huquqlari barqaror bo'lishi, makonda mehr-shafqat, odamiylik tamoyilarini takomillashuviga bag'rikenglik yordam beradi. Bag'rikenglik insonni o'z-o'zini asrashiga ko'maklashadi.

Bag'rikenglik keng ma'noda barcha xalqlarning yashash uchun kurashish huquqining tasdiqlanishi bilan ob'ektiv ravishda bog'liqdir. Dunyo hamjamiyati kuch va zo'rlik, yakka hokimlikni zaiflashtirish yo'llarini izlab keladi. Asrlar davomida insonlar bag'rikenglikni haqiqiy poydevorini topishga intilib keldilar. Bu sohada diniy manbalarga murojaat qildilar. Chunki odamlar o'rtasida barqarorlik jihatlariga ehtiyoj tug'iladi. Barqarorlik muvozanat sharoitidagina alohida shaxs, halq erkin ma'naviy shakllanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Diniy bag'rikenglikni takomillashtirish- mamlakatlar o'rtasida mintaqalar va butun dunyo ham jamiyati miqyosida do'stona munosabatlarni qaror toptirishning muhim omilidir. Shu sababli ham O'rta Osiyoning o'rta asr mutafakkirlari bag'rikenglikka, aynan diniy bag'rikenglik sohasida ilmiy fikrlarni aytib ketganlar. Endilikda tarjima qilinib, xalqimizga taklif etilayotgan adabiyot, ilmiy manbalardan o'qib xulosa qilamizki bag'rikenglikni falsafiy jihatlari har bir shaxs, har bir xalqqa taalluqlidir. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Alisher Navoiyning «Xamsa», «Xolati Sayyid Xasan Ardashev», «Mahbub ul-qulub», Boburning «Boburnoma», Mirzo Ulugbekning «To'rt ulus tarixi» va boshqa asarlarida muammoga oid ibratli fikrlar bor.

Diniy bilimlar, dunyoviy bilimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi bag'rikenglikni taqazo etadi. Ayniqsa, buyuk muhaddislar hadislar to'plashda bu jarayonlarga e'tiborni qaratganlar. Jumladan, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hadislarida bag'rikenglik jihatlari ochib berilgan. Imom Buxoriy jami 600 ming hadis to'plab shulardan 100 ming «sahih» va 200 ming «g'ayri sahih» hadislarni yod olgan. Hadis ilmi bobida nihoyatda iqtidorli bo'lgan. Minglab shogirdlar tarbiyalagan. Muslim ibn Hajjoj, Iso at-Termizi, an-Nasoiy, Abu Zur'a, Yusuf al-Forobiy, Abu Bakr ibn Huzayma kabi mashhur muhaddislar

shular jumlasidandir. Imam Buxoriyning Al-Jom'i, as-sahih (ishonrali to‘plam) deb nomlangan to‘rt jilddan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhadislar tuzgan hadis to‘plamlari orasida eng mukammalidir. To‘plamda hadislardan tashqari islom huquqshunosligi, islom marosimlari, axloq-odob, ta’lim-tarbiya hamda o‘scha davr tarixi va etnografiyasiga doir ma’lumotlar ham bor. To‘rt jildlikda 600 ming hadisdan faqat 7275 tasi eng «sahih» hadislar kiritilgan. Bu to‘plam juda ko‘p marta chop etilgan. Unga sharhlar berilgan.

Imam Buxoriy yana bir qancha boshqa asarlar tasnif etgan. «Al-adab ul Mufrad», «Kitob asmo’ is-sahoba», «Kitob af’ol il-ibod», «Kitob bad’ il-maxluqot», «Kitob birr il-volidayn», «Ta’rix us-siqot va-z-zu’af min ruvot il-hadis», «Ta’rix Buxoro» va boshqalar.

Imam Buxoriyning falsafasi qadriyatlarimizni tiklashda kishilarda axloq-odob, halollik, rostgo‘ylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarni singdirish va qaror toptirishda muhim ahamiyatga egadir. Muhammad payg‘ambar «Kimgaki Olloh-taolo yaxshilikni ravo ko‘rg‘aydir, uni din ilmidan bahramand qilgaydir, ilmga ilm olmoq yo‘li birlan erishilg‘aydir» deganlar. Mazkur fikrda diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham e’tiborga olingan.

Bunday g‘oyalarni paydo bo‘lishida Ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Yazid Bistoniy, Mansur al-Xalloj, Abu Bakr ibn Muso al-Vositiy, Abu Rayhon Beruniy, Abulqosim Firdavsiy, Abdulla Jafar Rudakiy, Yusuf Bolasog‘uniy, Abu Bakr Narshaxiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad ibn Abdulloh, Ahmad ibn Abdulloh Mavraziy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg‘ariy kabi yuzlab allomalarining xizmati kattadir.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (787- 847) ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shib astronomiya, matematika sohalariga oid ko‘plab asarlar yozgan. Xorazmiy xalifa Ma’mun rahbarligida “Donishmandlar” uyida ishlagan. Uning “Al-jabr val muqobala” asari ayniqsa mashhurdir. Bu asar /arb va Sharq olimlariga algebra fani bo‘yicha dasturamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Xorazmiyning “Astronomik jadvallar”, “Quyosh soati to‘g‘risida risola ”, “Hind hisobi haqida risola”, “Tarix bo‘yicha risola”, “Musiqo bo‘yicha risola”, “Zij ” kabi asarlari ilmiy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlardir. Bu asarlar Xorazmiyning buyuk matematik umuman qomusiy alloma ekanligidan dalolatdir. To‘g‘ri, Xorazmiy aynan falsafaga oid maxsus asar yozmagan bo‘lsa-da, ammo uning matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix va musiqo ilmiga oid barcha asarlarida ilgari surilgan ilmiy isbotlangan falsafiy fikrlar, g‘oyalar, nazariy ta’limotlar son-sanoqsizdir. O‘zining bu asarlari bilan dunyo ilmini rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan hamyurtimizdir.

**REFERENCES:**

- 1) Зиёд Давронов (2022). БИОЭТИКАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ҲАҚИДА. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 82-84.
- 2) Давронов, З. Д. (1990). Возможность и действительность. Фан.
- 3) Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.
- 4) Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЬАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.
- 5) Salimov Baxriddin Lutfullaeivich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
- 6) Salimov Baxriddin Lutfullaeivich. Бирдамлик ва ҳамжиҳатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.